O'QUV LEKSIKOGRAFIYASINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Husanova Dildora Begimqul qizi
Termiz davlat universiteti tayanch doktaranti.

Anatatsiya: Lug'atlar insonlar hayotida juda muhim rol o'ynaydigan vositalardan biri hisoblanadi, ular til so'zlashuvchilarining ifoda ekpressivligini va aniqligini oshiradi. Umumiy lug'atlar orasida o'quv lug'atlari alohida ahmiyatga ega lug'at turi bo'lib, foydalanuvchi auditoriyasi asosan maktab o'quvchilari sanaladi. Ushbu maqolada o'quv leksikografiyasining nazariy bilimlari va mavjud metodologik asoslari o'rganib chiqiladi.

Kalit so'zlar: lug'at, leksikografiya,

Аннотация: Словари являются одним из важнейших инструментов в жизни людей, поскольку они повышают выразительность и точность речи носителей языка. Среди различных типов словарей особое место занимают учебные словари, основной аудиторией которых являются школьники. В данной статье рассматриваются теоретические основы учебной лексикографии и существующие методологические подходы в этой области.

Ключевые слова:

Anotation: Dictionaries are considered one of the most important tools in human life, as they enhance the expressiveness and accuracy of language users' speech. Among general dictionaries, learner's dictionaries occupy a special place, with their primary target audience being school students. This article examines the theoretical foundations of educational lexicography and the existing methodological approaches in this field.

Key words:

Lug'at so'ziga ta'riflarni o'rganadigan bo'lsak, Oxford inglizcha lug'atida "lug'at" so'ziga "tilning alohida so'zlarini (yoki ularning ayrim guruhlarini) tahlil qiladigan, ularning imlosi, talaffuzi, ma'nosi, grammatik funksiyalari, sinonimlari, etimologiyasi, yoki hech bo'lmaganda ushbu ma'lumotlarning bir qismini taqdim etuvchi manba" deya ta'rif berilgan. Ya'ni lug'atlar so'zlarning ma'lum bir jihatlari bo'yicha ma'lumotlar beruvchi resurs bo'lib, unda so'zlarni tarjimasi, ta'rifi, semantik munosabatlari kabi xususiyatlari ochib beriladi.

Leksikografiya – lug'atlar tuzish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanuvchi soha hisoblanadi. Lug'atlarni tuzish juda qadimiy davirlarga borib taqaladi, misol uchun miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri – II ming yillikning boshlarida Shumer madanyatida ham murakkab so'zlarni ro'yhatini yig'ib ularni tushuntirishga urunishlar bo'lgan va bu jarayonlarni biz leksikografiyaga ilk qadam sifatida ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi ma'lumotlrdan kelib chiqib, dastavval amaliy leksikografiya mavjud bo'lganligini bilishimiz mumkin. XX asrning o'rtalariga borib, amaliy bajarilgan ishlar tizimlashtirila boshlagan, lug'atlar yaratish bo'yicha nazariy bilimlar yig'ilgan. Bu jarayon nazariy leksikografiyaning paydo bo'lishiga olib kelgan.

Gerbert Vigand nazariy leksikografiyaning faoliyatini uchta bosqichga bo'lgan: 1)lug'atni rejalashtirish; 2) asosiy elementlarni yaratish; 3) lug'at matnini tuzish. Lug'atlarni yartishda eng avvalo ularni rejalashtirish, ya'ni qanday turdagi lug'at, maqsadi, funksiyasi, foydalanuvchi auditoriyasini aniqlash lozim. Keyingi jarayon bu-lug'atlarning tarkibiy qisimlarini ishlab chiqish va tizimli shakillantirish hisoblanadi va oxirgi etapda lug'atdagi maqolalarni ma'lum tartib va tamoyillar asosida yaratish hamda joylashtirish ishlari amalga oshiriladi.

Nazariy leksikografiya asosiy vazifalaridan biri bu lug'atlarni asosiy turlarga bo'lish masalasi hisoblanadi. Lug'atlarni turlarga bo'lishda ma'lum bir mezonlar mavjud bo'lib, ushbu mezonlar doirasida lug'atlaring turlari ajratiladi. Bu me'zonlar: 1) qamrov hajmi bo'yicha; 2) ishlatiladigan tillar soni bo'yicha; 3) vaqt jihati; 4)lug'at maqolalarining xarakteri yoki joylashuvi bo'yicha 5)lug'atlarning maqsadi bo'yicha; 6) foydalanuvchi auiditoriyasi bo'yicha. Ushbu mezonlar lug'atlarni tuzuvchiga lug'atning turini har tomonlama tahlil qilib ajratishga ko'mak beradi. Misol uchun, qamrov hajmiga ko'ra lug'atlar ikki xil umumiy va maxsus cheklangan lug'at turlariga bo'linadi, tillar soni bo'yicha bir, ikki, ko'p tilli lug'atlar, vaqt xususiyatiga ko'ra sinxron va diaxron lug'atlar, maqsadiga ko'ra tarjima, o'quv lug'atlar va boshqa turlar, yuzlanuvchi auditoriyasi jihatidan esa lug'atlar umumiy foydalanish uchun mo'ljallangan, aynan mutaxsasisslar uchun mo'ljallangan lug'at turlariga bo'linadi.

Zamonaviy tilshunoslik, amaliy lingvistikaning eng muhim yo'nalishlaridan biri bu o'quv leksikografiyasi hisoblanadi. Bu soha aynan maktab o'quvchilari uchun maxsus lug'atlarni yaratish nazariyasi va amaliyoti bilan shug'ullanadi. O'quv luga'tlari maktab o'quvchilarining lingvistik bilimlarini, leksik boyligini oshirishda, hamda kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

O'quv leksikografiyasining nazariy metodologik asoslarida bir nechta yo'nalishlar mavjudki, ular o'quv leksikografiyasining mustahkan poyedevoridir. Ushbu yo'nalishlar: lug'at turlarining tasnifi, umumiy va maxsus lug'atlar orasidagi faqrlar, ikki tilli lug'atlarning o'ziga xos jihatlari va leksik materiallarni talqin qilish tamoillari hisoblanadi.

O‘quv lug‘atlari ta’lim kompleksining bir qismi bo‘lganligi va hajman kichik bo‘lganligi uchun ham ular faqat kichik kitobcha shaklida yaratilishi ham ularning o‘ziga xos jihatidir. Undan tashqari o‘quv lug‘atlarida ma’lumotlarni tez va oson topish ham juda muhim hisoblanadi. Umuman lug‘atlarda so‘zliklarning berilishi uch xilda bo‘lishini yuqorida ta’kidlab o‘tgan edik. Ulardan alifbo tartibida so‘zliklarning berilishi o‘quv lug‘atlariga anchayin mos keladi. Chunki maktab o‘qubvchilari uchun alifbo tartibida berilgan ma’lumotlarni topish anchayin qulay. Undan tashqari ularni mavzuviy tarzda berish ham maktab o‘quvchilari uchun to‘g‘ri keladi.

O‘quv lug‘atlari o‘z o‘rnida antroposentrik lug‘at turiga mansubdir. Chunki o‘quv lug‘atlari maktab ta’limida o‘quvchilarga tillarnin o‘rgatadi, ularda tillarga nisbatan qiziqish uyg‘otadi va ushbu tildan to‘g‘ri, samarali foydalanishga bevosita yordam beruvchi be’minnat yordamchidir. O‘quv lug‘atlarining asosiy maqsadi o‘quvchiga shunchaki tillarni o‘rgatish bilan chegaralanmasdan ularning dunyo qarashini kengaytirib, nutqiy va yozma savodxonligini oshiradi, ularning ijodiy fikrlash qobiliyatini yanada yuksaltiradi. Shu jihati bilan ham o‘quv lug‘atlari boshqa lug‘atlardan ajralib turadi.

O‘quv lug‘atlarining yana bir boshqa lug‘atlardan farqlovchi omili shundaki, ular hajm jihatdan boshqa turdagi lug‘atlarga qaraganda anchayin kichik bo‘ladi. Ya’ni o‘quv lug‘atlari asosan maktab o‘quvchilari uchun yaratilganligi uchun ham hajm jihatdan qulay, ixcham bo‘lishigi muhim hisoblanadi. Chunki, juda katta hajmdagi o‘quv lug‘atlar maktab o‘quvchilarini o‘ziga jalb qilmasdan o‘zidan bezdirib qo‘yish ehtimoli juda kuchlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Civil M. Ancient Mesopotamian Lexicography // Civilizations of the Ancient Near East. Vol. IV. – New York: Charles Scribner's Sons, 1995. – P. 2305-2314.
2. Landau S.I. Dictionaries: The Art and Craft of Lexicography. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001. – P. 86.
3. Oxford English Dictionary. Oxford: Oxford University Press. URL: https://www.oed.com (murojaat sanasi: 01.11.2025)
4. Wiegand H.E. On the Structure and Content of a General Theory of Lexicography // Proceedings Papers from the International Conference on Lexicography. Exeter 9 – 12 September, 1983. – P. 13 – 20.